

## **Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida 2026-yil I-yarim yilligi davomida korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi HISOBOT**

“Kon-geologiya vazirligining aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-xarakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti” talablari asosida joriy yilda aloqa kanallari orqali korrupsiyaga oid 1 ta murojaat kelib tushgan.

Xususan, pochta orqali 2026-yil 16-yanvar kuni “Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i” DM ishchisi “T.S.X.” tomonidan murojaat kelib tushgan.

Murojaatda tabiat bog‘i rahbarining faoliyatidan noroziligi, xususan xodimlar oylik maoshi va rag‘batlantirish berish masalasida amaldagi tartib-taomillarga amal qilinmayotganligi, o‘zaro yaqin qarindoshlar ishlashi natijasida manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelayotganligin ta’kidlagan va mazkur holatlarga qonuniy chora ko‘rishni so‘ragan.

Mazkur holat yuzasidan Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2026-yil 20-yanvardagi “Xizmat tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risida”gi 5-son buyrug‘i asosida Ishchi guruh shakllantirilib, 2026-yil 21-30-yanvar kunlari "Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i" DM da xizmat tekshiruvi o‘tkazildi.

O‘tkazilgan o‘rganishlar natijasida "Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i" DMda a 5 nafar xodimlarga belgilangan me‘yordan ortiqcha mukofot pullari to‘lab yuborilgani va 3 nafar xodimlar o‘zaro yaqin qarindosh bo‘lib, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatini oldini olish maqsadida tegishli choralar ko‘rilmagani ma’lum bo‘ldi.

O‘tkazilgan xizmat tekshiruvi natijasini muassasaning kengaytirilgan yig‘ilishida muhokama qilib, moliyaviy xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan tegishli rahbar va xodimlarga nisbatan qat’iy choralar ko‘rish, chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib hamda amalga oshirish topshirilgan.

Xozirgi kunda xizmat tekshirvi jarayonida aniqlangan muassasaning 2024-yil dekabrda xodimlarga me‘yoridan ortiqcha to‘lab yuborilgan 40,3 mln. so‘m pul mablag‘lari qaytarilib, masu’llarga nisbatan tegishli choralar ko‘rilgan.

Fuqoro “T.S.X.”ga Kon-geologiya vazirligining 2026-yil 3-fevraldagi 23-556-son javob xati yuborilgan.